

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
AL-XORAZMIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

“Geodeziya, kartografiya, geografiya.” kafedrası



“KATOSHUNOSLIK”

FANIDAN

REFERAT

MAVZU: GEOGRAFIK KARTA VA ATLASLARNI TASNIFI, TURLARI VA TIPLARI

**BAJARDI:
QABUL QILDI:**

**Botirov Joxongir
Qalandarov Umarbek**

Urganch-2016

MAVZU: GEOGRAFIK KARTA VA ATLASLARNI TASNIFI, TURLARI VA TIPLARI.

Reja:

1. Geografik kartalarni tasnifi. Tasniflash prinsiplari.....	3
2. Kartalarni masshtabi va ularda tasvirlangan hudud maydoniga ko‘ra tasniflash.....	4
3. Kartalarni mavzusi (mazmuni) bo‘yicha tasniflash.....	5
4. Kartalarni ulardan foydalanish maqsadlariga ko‘ra tasniflash.....	8
5. Geografik kartalarni tiplari.....	8
6. Geografik atlaslar. Atlaslarni ta’rifi va tasnifi.....	10
7 Glossariy (Izohli lug‘at).....	14
8 Adabiyotlar ro‘yxati.....	16

.

1. Geografik kartalarni tasnifi. Tasniflash prinsiplari

Geografik kartalar g'oyat ko'p va xilma xildir. Kartalarni o'rganish, hisobga olish, saqlash va boshqa maqsadlar uchun ular tasniflanadi.

Kartalarni ilmiy asosda tasniflash ularni alohida turlariga xos bo'lgan xususiyatlarni va qonuniyatlarni o'rganishni osonlashtiradi. SHuningdek, u kartografik ishlab chiqarishni tashkil etishda o'z aksini topadi va uni ishini samarali yo'lga qo'yishga yordam beradi; shuningdek u kartalarni kataloglarni tuzish, ularni kartalar saqlanadigan xonalarda sistemali ravishda joylashtirish va saqlash uchun zarur; va nihoyat, kartalar saqlanadigan joylar, masalan kutubxonalar uchun u ayniqsa muhim. Zero, tasniflash kerakli kartalarni tez axtarib topishni va ularni foydalanuvchilarga o'z vaqtida etkazib berishni ta'minlaydi. Informatsion-kartografik xizmatga avtomatizatsiyani joriy etish uchun- barcha turdagi kartografik asarlar albatta tasniflangan bo'lishi lozim.

Geografik kartalarni tasniflashda ularda tasvirlangan hududning maydoni, kartaning masshtabi, mazmuni, maqsadi, matematik asosi, davri, nashr qilingan joyi, yili, tili va boshqa xususiyatlari asos qilib olinishi mumkin. Lekin ko'rsatilgan belgilardan geografik kartalarni mazmuni va xarakterini belgilovchi dastlabki to'rtta belgi ancha muhimdir.

Har qanaqa ilmiy tasnif qator mantiqiy talablarni qoniqtirishi kerak. ***Birinchidan***-umumiy tushunchadan xususiyl tushunchaga o'tishda (keng tushunchani ancha tor tushunchalarga bo'lib yuborishda darajama-daraja borish) ketma-ketlik bo'lishi shart. ***Ikkinchidan***-tasnifni har bir pog'onasida bo'lishni ma'lum aniq belgisini qo'llash zarur. ***Uchinchidan***-keng tushunchani ancha tor tushunchalarga bo'lgan paytda, ularni umumiy yig'indisi keng tushunchani hajmiga mos kelishi kerak.

Tasnifni har bir pog'onasida ajratilgan guruhlar, o'zaro bir-biridan aniq farqlanishi kerak. Lekin, tasnif qancha maydalansa amalda bu talabni amalga oshirish shuncha qiyinlashib boradi.

Hamma turdagi kartografik asarlarni to'plovchi va ularni saqlovchi muassasalar, dastlab ularni shakliga (formatiga, bichimiga) ko'ra guruhlarga ajratadi, bunda geografik kartalar, atlaslar, relef kartalari, va globuslar alohida tasniflanadi. Turgan gap, kartografiyani rivojlanishi bilan geografik kartalarni tasnif qilish ham o'zgarib takomillashib boradi.

2. Kartalarni masshtabi va ularda tasvirlangan hudud maydoniga ko'ra tasniflash.

Geografik (umumgeografik) kartalar ***masshtabining yirik-maydaligiga*** qarab qo'yidagi uchta guruh kartalarga bo'linadi.

-yirik masshtabli (masshtabi 1:100 000 va undan yirik).

-o'rta masshtabli (masshtabi 1:200 000 dan 1:1 000 000 gacha).

-mayda masshtabli (masshtabi 1:1 000 000 dan mayda).

*Masshtabi 1:100 000 va undan yirik bo'lgan umumgeografik kartalar **topografik kartalar** deyiladi.* Bu kartalarda hudud topografik jihatdan aniq va mukammal tasvirlanadi. SHuning uchun ham topografik kartalar hududni aniq va mukammal o'rganish hamda tekshirish, turli inshootlar qurish, shuningdek, aniq o'lchash va hisoblash ishlarida, joyda orientirlashda keng qo'llaniladi.

*Masshtabi 1:200 000 dan 1:1 000 000 gacha bo'lgan umumgeografik kartalar **obzor topografik kartalar** deb ataladi.* Bu kartalarda hudud topografik kartalarga qaraganda birmuncha umumlashtirib tasvirlanadi. Ulardan iqtisodiyotni rivojlantirish rejalarini va loyihalarini tuzishda, yirik qurilish inshootlarini joylarini belgilashda, hududni dastlabki o'rganishda keng foydalaniladi. Obzor topografik kartalar hududni geografik jihatdan o'rganish, geografik rayonlashtirish, shu karta masshtabida turli xil mavzuli va maxsus kartalar hamda mayda masshtabli obzor kartalar va atlaslar tuzishda asos sifatida, harbiy ishlarda, chunonchi turli operativ-taktik masalalarni hal qilishda qo'llaniladi.

Masshtabi 1:1 000 000 dan mayda bo'lgan umumgeografik kartalar ***obzor kartalar*** deyiladi. Bu kartalarda hudud topografik jihatdan ancha umumlashtirib

tasvirlanadi. SHuning uchun ham ular hudud to'g'risidagi umumiy ma'lumotlarnigina bera oladi.

Kartalar ularda ***tasvirlangan hudud maydoniga*** ko'ra dunyo, yarim sharlar, materiklar (qit'alar), okeanlar, dengizlar, alohida davlatlar kartalari va boshqa kartalarga bo'linadi. Tabiiy geografik, iqtisodiy geografik va ma'muriy-hududiy tamoyillarga (bo'linishga) ko'ra har bir davlat yoki materik kartalarini yana guruhlariga ajratish mumkin. Masalan, materiklarning tabiiy geografik rayonlari kartasi, alohida davlatlarning tabiiy-geografik rayonlari kartasi bunga misol bo'la oladi. Farg'ona, CHirchiq-Ohangaron, Mirzacho'l, Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo, Qizilqum, Ustyurt va Qo'yi Amudaryoning kartalarini O'zbekistonning tabiiy-geografik rayonlari kartalariga misol qilib ko'rsatish mumkin. Toshkent, Mirzacho'l, Samarqand. Farg'ona, Buxoro-Navoiy, Qashqadaryo, Surxondaryo va quyi Amudaryoning kartalarini O'zbekistonning iqtisodiy-geografik rayonlari kartalariga misol qilib ko'rsatish mumkin. Dunyo okeani kartalari ham dastlab okeanlar yoki ularni havzalari va so'ngra alohida-dengizlar, qo'ltiqlar va bo'g'ozlar kartalariga bo'linadi. Alohida davlatning ma'muriy-hududiy bo'linishi kartalariga misol qilib O'zbekiston Respublikasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, ma'muriy viloyatlar va rayonlar (tumanlar) kartalarini ko'rsatsa bo'ladi.

3. Kartalarni mavzusi (mazmuni) bo'yicha tasniflash

Kartalar ***mavzusi (mazmuni) bo'yicha*** dastlab qo'yidagi ikki yirik guruhga, ya'ni ***umumgeografik va mavzuli*** kartalarga bo'linadi.

Umumgeografik kartada geografik landshaftning tashqi ko'rinishi tasvirlanadi. Uning geografik mazmuni landshaftning asosiy elementlari-relef, gidrografiya ob'ektlari, tuproq, o'simlik va grunt ko'rsatkichlardan iborat bo'lib, bu elementlar kartaga bir xil aniqlikda va mukammallikda tushiriladi.

Mavzuli kartada geografik landshaftning ayrim elementlari boshqa elementlarga nisbatan aniq va mukammal tasvirlanadi. Masalan, relef kartasida asosiy element relef bo‘lib, u aholi punktlari, yo‘llar va boshqalarga karaganda ancha aniq va mukammal ko‘rsatiladi. Kartada biron tabiiy yoki ijtimoiy hodisa tasvirlansa ham u mavzuli karta deyiladi. Bunday kartalarga tarix kartalari, geologik, iqlim, tuproq kartalari va boshqa kartalarni misol qilib ko‘rsatish mumkin. Mavzuli kartalar dastlab ikkita katta ***sinfga***, sinflar o‘z navbatida ***turlarga***, turlar esa ***xillarga*** bo‘linadi. Masalan, mavzuli kartalar eng avvalo ikkita katta sinfga, ya’ni tabiiy (tabiiy-geografik) hodisalar kartalari sinfiga va ijtimoiy (ijtimoiy-iqtisodiy) hodisalar kartalari sinfiga bo‘linadi. Mazkur tasnifni qo‘yidagi sxemada yaqqol tasavvur etish mumkin:

Umumgeografik kartalar:

- topografik;
- obzor-topografik;
- obzor.

Mavzuli kartalar:

Tabiiy hodisalar kartalari:

- umumiy tabiiy-geografik;
- geologik;
- geofizik;
- geoximik;
- geomorfologik;
- meteorologik va iqlim;
- okeanologik (okean va dengiz suvlari);
- gidrologik (quruqlik usti suvlari);
- tuproq;
- geobotanik;
- zoogeografik va boshqa shu kabi tabiiy-geografik ob’ekt yoki xodsalarni tasvirlaydigan kartalar;

Ijtimoiy hodisalar kartalari:

- aholi;
- iqtisodiy (xalq xo'jaligi);
- sotsial-infrastruktura;
- siyosiy-ma'muriy;
- tarixiy va boshqa shu kabi ijtimoiy-iqtisodiy ob'ekt yoki hodisalar tasvirlangan kartalar.

So'ngra yuqoridagi turlar xillarga bo'linadi, masalan, geologik kartalar quyidagi xillarga bo'linadi:

- stratigrafik;
- tektonik;
- litologik;
- to'rtlamchi davr yotqiziqlari;
- gidrogeologik;
- geoximik;
- foydali qazilmalar;
- seysmik;
- vulkanizm va boshqalar.

Sotsial-infrastruktura kartalari quyidagi xillarga bo'linadi:

- ta'lim;
- fan;
- madaniyat;
- sog'liqni saqlash;
- fizkultura va sport;
- turizm;
- maishiy va kommunal xizmat ko'rsatish va boshqalar.

4. Kartalarni ulardan foydalanish maqsadlarga ko'ra tasniflash

Kartalarni ***maqsadi*** ularni masshtabiga, mazmuniga va rasmiylashtirish (jihozlash) usuliga katta ta'sir ko'rsatadi. Buni bitta hududni bir xil masshtabli va mazmunli, lekin har xil maqsadli umumgeografik yoki siyosiy-ma'muriy kartalarni bir-biriga taqqoslasak yaqqol ko'ramiz.

Kartalarni ulardan ***foydalanish maqsadlariga ko'ra***: o'quv kartalari, ilmiy-ma'lumotnoma kartalar, targ'ibot va tashviqot, operativ xo'jalik, navigatsiya, kadastr, yo'l, loyiha, turistik va boshqa kartalarga bo'lish mumkin.

Kartalarni ulardan foydalanish maqsadlariga ko'ra tasnifiga maxsus kartalarni ham kiritishadi. Maxsus kartalar ma'lum doiradagi foydalanuvchilarga va ma'lum vazifalarni echimiga mo'ljallangan bo'ladi. Masalan, dengiz va daryo navigatsiya kartalari, aeronavigatsiya kartalari, loyiha kartalari va boshqalar.

5. Geografik kartalarni tiplari

Kartalarni tiplariga ko'ra tasniflashda, odatda, ularning mavzuini kengligi (qamrovi), kartaga olinayotgan hodisalarni ilmiy tadqiq etish usullari, mazmunini umumlashtirish darajasi, kartografik informatsiyani ob'ektivligi va amaliy yo'naltirilganligi asos qilib olinadi.

Kartalar mavzuining kengligi bo'yicha ***umumiy va xususiy*** yoki ***sohaviy*** kartalarga bo'linadi. ***Umumiy karta(lar)da*** nisbatan ancha keng mavzu tasvirlanadi. Masalan, umumiy iqlim kartasida asosiy meteorologik elementlarni hammasi, chunonchi havo harorati, yog'in-sochin, shamol va bosim to'liq tasvirlangan bo'ladi. SHuningdek, umumiy sanoat kartasida sanoatni barcha etakchi tarmoqlari (sohalari) berilgan bo'ladi. ***Xususiy karta(lar)da*** esa ancha tor mavzu tasvirlangan bo'ladi. Masalan, xususiy iqlim kartasida yuqorida ko'rsatilgan asosiy meteorologik elementlarni har biri alohida-alohida tasvirlangan bo'ladi. «Sohaviy karta» termini ko'proq sotsial-iqtisodiy mavzuda tuzilgan kartalarga nisbatan qo'llaniladi. Masalan. sanoatni, qishloq xo'jaligini, transportni, xizmat ko'rsatishni alohida soha (tarmoq)larini tavsiflovchi kartalar. Mavzuini kengligi tushunchasi va demak kartalarni umumiy yoki xususiyga kiritish ma'lum darajada

nisbiy hisoblanadi. Dehqonchilik kartasi, yoki alohida texnika ekinlari kartalari qishloq xo'jaligi kartasiga nisbatan sohaviy hisoblanadi, lekin qishloq xo'jaligini kartasini o'zi esa xalq xo'jaligini bir butun tasvirlagan kartalarga nisbatan sohaviy karta sifatida qabul qilinishi mumkin va h.k.

Kartalar ularda tasvirlanayotgan hodisalarni ilmiy tadqiq etish usuliga bog'liq holda *analitik* va *sintetik* kartalarga bo'linadi. *Analitik kartalar* hodisalarni (jarayonlarni) ayrim tomonlarini yoki xususiyatlarini bu hodisalarni boshqa tomonlari yoki xususiyatlari bilan aloqalarini va o'zaro bog'liqligini hisobga olmagan holda butundan ajratib ko'rsatadi. Havo xarorati, shamollar, yog'in-sochinlar yoki balandlik mintaqalari, yon bag'rlarning qiyaligi, parchalanib ketganligi ana shunaqa kartalardir. Ular iqlimni, relefni ayrim xususiyatlarini alohida qayd etadi.

Aksincha, *sintetik kartalar* kartaga olinayotgan hodisalar haqida to'liq tasavvur beradi, ularda ushbu hodisalarni o'ziga xos komponentlari, xususiyatlari, ichki va tashqi aloqalari hisobga olinadi hamda ularni integral tavsiflari beriladi, lekin ularni har birini kartada alohida aniq va analitik tarzda ko'rsatmaydi. Landshaft kartalari, iqlim rayonlashtirish kartalari ana shunaqa kartalardir. Ularda qator ko'rsatkichlarni majmui asosida (harorat, yog'in-sochinlar, ularni bir yillik o'zgarishi va boshqalar) iqlim oblastlari ajratiladi.

Hodisalarni bir qancha xususiyatlarini birgalikda yoki bir qancha o'zaro bog'langan hodisalarni, lekin ularni har birini alohida o'zini ko'rsatkichida ko'rsatadigan *kompleks kartalar* alohida kategoriyani tashkil etadi. Bu, etish mumkin, ko'p sohaviy kartalardir. Masalan, sinoptik kartalar, topografik kartalar va boshqalar.

Kartalar. ularni tuzishda foydalanilgan *informatsiyani ob'ektivligi va amaliy yo'naltirilganligiga ko'ra*: hujjatli kartalarga, xulosa chiqarish muayyan bir fikrga kelish asosida tuzilgan xulosa kartalarga. shuningdek ularni gipotetik, tendensioz; amaliy. baholash, tavsiyanoma va prognoz kartalari va boshqa kartalarga bo'lish mumkin.

6. Geografik atlaslar. Atlaslarni ta'rif va tasnifi

Geografik atlas deb umumiy dasturga binoan bir butun (yaxlit, bo'linmas) asar sifatida bajarilgan geografik kartalarni sistemali to'plamiga aytiladi. Atlas har xil geografik kartalarni oddiy to'plami emas, ularni kitob yoki albom ko'rinishidagi mexanik birlashuvi emas; u o'z ichiga o'zaro uzviy ravishda bog'langan va bir-birini to'ldiradigan kartalar sistemasini oladi, bu sistema atlasni maqsadi va undan foydalanish xususiyatlari bilan o'zaro muvofiqlashgan bo'ladi.

Qadimgi grek olimi Klavdiy Ptolomeyning geografik kartalar to'plamini (eramizni II asri) birinchi geografik atlas deb hisoblash mumkin. XV asrning oxiri va XVI asr boshlaridagi, Buyuk geografik kashfiyotlar Er to'g'risidagi tasavvurlarni kengaytirgandan so'ng geografik atlas keng yoyildi, kolonial bosib olishlar, savdo va ochiq dengizda kema qatnovining rivojlanishi va boshqalar geografik kartalarga bo'lgan ehtiyojni va munosabatni tubdan o'zgartirdi.

Kartalarni to'plami uchun «Atlas» nomi birinchi marta Merkator tomonidan (1595 yil) afsonaga ko'ra birinchi bo'lib osmon globusini tayyorlagan Livianing afsonaviy podshosi-Atlasni sharafiga ishlatilgan.

Ma'lumotlarga qaraganda, har yili dunyo bo'yicha egallagan maydoni, mavzui (mazmuni). maqsadi va hajmi bo'yicha minglab har xil yangi atlaslar chop etiladi. Atlaslarni tasnifi ham geografik kartalarni tasnifiga mos ravishda amalga oshiriladi.

Atlaslar ularda ***tasvirlangan hudud*** maydoniga ko'ra dunyo atlaslari (yoki butun dunyo atlaslari), butun Er sharini qoplab olgan (masalan, Dunyoni katta sovet atlas, 1939-1940); alohida kontinentlarni yoki ularni yirik qismlarini atlaslari (masalan, Antarktika atlas, Dunay bo'yi mamlakatlari atlas); alohida davlatlarni atlas, (AQSH, Kuba, Fransiya va boshqalar); regional atlaslar-davlatlarni qismlarini, alohida viloyatlarni, provinsiyalarni va rayonlarni atlaslari (masalan Leningrad viloyatini atlas, Normandiya atlas va boshqalar); shaharlar atlas (masalan Parij va Parij rayoni atlas, Toshkent atlas) va boshqalar.

Xuddi shunday bo'lish (tasniflash) akvatoriyalar atlaslari-okeanlar va ularni yirik qismlari (masalan, uch qismlik Okeanlar Atlasi); dengiz (masalan. uch qismlik Dengiz Atlasi); bo'g'ozlar, yirik ko'llar atlaslari va boshqalar uchun ham ishlatiladi.

Atlaslar **mavzui (mazmuni)** bo'yicha qo'yidagilarga bo'linadi:

- **umumgeografik atlaslar**, asosan umumgeografik kartalardan iborat bo'lgan atlaslar (masalan, 1967 yili Sobiq SSSRda nashr qilingan Dunyo Atlasi).
- **tabiiy geografik**, tabiiy hodisalarni tasvirlovchi atlaslar. Ular o'z navbatida quyidagilarga bo'linadi: **tor sohaviy** atlaslar, ular bir xil tipdagi kartalardan iborat bo'ladi (masalan, AQSH alohida okruglarini tuproq atlaslari, SSSR dorivor o'simliklarining areallari va resurslari Atlasi); **kompleks sohaviy** birorta tabiiy hodisani har xil, lekin o'zaro bir-birini to'latadigan kartalaridan iborat bo'lgan atlaslar (masalan, alohida meteorologik elementlarni kartalarni ham o'z ichiga olgan SSSR Iqlim atlaslari); **kompleks**, qator o'zaro bog'langan tabiiy hodisalarni ko'rsatadigan atlaslar (masalan. iqlim va Dunyo okeani okeanografiyasini tasvirlovchi sovet Dengiz atlasini ikkinchi qismi) yoki tabiatni har tomonlama tavsifini beruvchi (masalan 1964 yili Sobiq SSSR da chop etilgan dunyoni Tabiiy-geografik atlaslari);
- **sotsial – iqtisodiy**, tabiiy geografik atlaslar uchun ko'rsatilgan bo'linishga o'xshash (masalan, tor sohaviy-SSSR avtomobil yo'llari atlaslari, kompleks sohaviy-SSSR xalq xo'jaligi va madaniyatini rivojlanish Atlasi);
- **umumiy kompleks**, tabiiy, iqtisodiy va siyosiy geografiya bo'yicha kartalarni o'z ichiga olgan va kartasi olinayotgan hududga har taraflama tavsif beruvchi atlaslar (masalan, turli mamlakatlarni milliy atlaslari).

Atlaslarni ulardan **foydalanish maqsadlariga** ko'ra: o'quv, o'lkashunoslik, turistik, yo'l, tashviqot va boshqa atlaslarga bo'lish mumkin. Bu tasnifni boshqa aspekti, atlaslarni ilmiy-ma'lumotnoma va ommabop atlaslarga bo'lish hisoblanadi.

Nihoyat, formatiga (bichimiga) ko'ra kattakon yoki stol ustida turadigan, o'rtacha, kichik, oxirgilarini ichidan esa, shuningdek cho'ntak atlaslarini ajratishadi.

Bir butun (yaxlit, bo'linmas) asarlar sifatida atlaslarni xususiyatlari

Istagan geografik atlasni sifati avvalo uni ***to'liqligi, mukammalligi va ichki bir-butunligi*** bilan aniqlanadi.

Atlas to'liq hisoblanadi, qachonki uni maqsadi (vazifasi) va o'ylab qo'yilgan asosiy mazmunidan (g'oyasidan) kelib chiqqan holda unda barcha savol va mavzular kerakli va etarli darajada yoritilgan bo'lsa. Misol uchun Dunyoni tabiiy geografik atlasini oladigan bo'lsak, u holda bu nuqtai nazardan mazkur atlas birinchidan, planetani barcha tabiiy geografik kartalarini o'z ichiga olgan va ikkinchidan, geografik muhitni barcha asosiy komponentlarini tavsiflagan bo'lishi lozim.

Atlasni ***mukammalligi*** deb, mavzularni sonini ko'paytirishga intilish kartalar sonini ortishiga yoki atlasni belgilangan hajmida kartalarni masshtabini qisqartirishga olib keladi. SHu bilan birga ayrim mamlakatlarni kartalari va ayrim mavzular yirik masshtablarni talab etishi mumkin. Ushbu qarama-qarshilikdan chiqish yo'lini topish uchun haqiqatan ham zarur mavzular qat'iy ravishda tanlab olinishi va unchalik muhim ahamiyati bo'lmaganlari tushirib qoldirishi, hamda bitta kartada mavzular maqsadga muvofiq birlashtirilishi, minimal va shu bilan birga etarli masshtablar tanlanishi lozim.

Atlasni ***ichki bir butunligi*** uni tarkibiga kiradigan kartalarni o'zaro bir-birini to'ldirishini, bir-biriga muvofiqligini va taqqoslash qulayligini nazarda tutadi. Bunga foydalaniladigan proeksiyalar va masshtablar sonini maqsadga muvofiq tanlash va cheklash; bir-biriga bog'langan (yaqin) kartalar uchun bir xil geografik asos ishlatish; har xil kartalarni legendalarini ko'rsatgichlar va detallilik jihatidan bir-biriga moslash; generalizatsiya uchun ko'rsatmalarni birligi; tasvirlash usullarini va kartografik belgilar sistemasini, bo'yoqlarni, shriftlarni o'zaro bir-biriga bog'lash; kartalar mazmunini birorta ma'lum xarakterli muddatga

to'g'rilash; mavzu va kartalarni maqsadga muvofiq joylashtirish va albatta, atlasni yaratish jarayonida atlasni har xil kartalarida tasvirlanadigan hodisalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklarni hisobga olish tufayli erishiladi.

Atlasni ***maqsadi (vazifasi)*** uni asosiy mazmunini, strukturasini va hajmini belgilaydi.

Ko'p atlaslar, ayniqsa mavzuli va kompleks atlaslar o'z ichiga matnlarni, jadvallarni va zarur spravochnik-statistik ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Zarur ob'ektlarni topishni engillashtirish uchun atlaslarga geografik nomlar ko'rsatkichi ilova qilingan bo'ladi.

Glossariy (Izohli lug‘at)

Karta - Yer yuzasini, boshqa osmon jismlarini yoki kosmik fazoni matematik aniq belgilangan, kichraytirilgan, umumlashtirilgan tasviri bo‘lib, u qabul qilingan shartli belgilar sistemasida ularda joylashgan ob‘ektlarni ko‘rsatadi.

Ob‘ekt - kartografiyada kartalarda tasvirlanadigan har qanday predmet, voqea, hodisa yoki jarayon.

Geografik karta - Yerni yoki uni biror qismini yerning egriligini hisobga olib, ma‘lum matematik qoidalar asosida bir oz o‘zgartirib, kichraytirib, umumlashtirib qog‘ozga (tekislikka) tushirilgan tasviri (proeksiyasi) bo‘lib, u qabul qilingan shartli belgilar sistemasida unda joylashgan ob‘ektlarni vaqt mobaynida o‘zgarishini, ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni qo‘rsatadi.

Umumgeografik karta - joyning barcha asosiy elementlarini tasvirlaydigan geografik karta bo‘lib, unda bu elementlar bir xil aniqlikda va mukammallikda ko‘rsatiladi.

Umugeografik karta elementlari - matematik asos, kartografik tasvir, yordamchi jihozlar va boshqa qo‘shimcha ma‘lumotlar.

Mavzuli karta - asosiy mazmuni tasvirlanadigan muayyan mavzu bilan belgilanadigan karta. Relif kartasida asosiy element relif bo‘lib, u aholi punktlari, yo‘llar va boshqalarga qaraganda ancha aniq va mukammal tasvirlanadi.

Kartani geografik asosi - sohaviy, mavzuli va maxsus kartalar mazmunini umumgeografik qismi bo‘lib, ularni maxsus mazmunini tashkil etadigan elementlarini kartaga to‘g‘ri tushurish, fazoviy bog‘lash va kartadan foydalanish vaqtida orientirlashga xizmat qiladi.

Legenda - karta mazmunini ochib beradigan barcha shartli belgilar va izohlar tizimi.

Kartani matematik asosi - kartaning matematik elementlari majmui (kartografik proeksiya va u bilan bog‘liq koordinata to‘ri, masshtab, godezik asos, kompanovka, razgrafika va nomenklatura).

Kartografik material - kartani tuzish, tuzatish yoki yangilash uchun foydalaniladigan kartografik asar va boshqa istagan hujjat.

Kartografik ta'minlanganlik - birorta ishni bajarish uchun zarur kartalarni mavjudligi.

Kartografik asar - bosh, asosiy qismi kartografik tasvir bo'lgan asar.

Geografik karta - Yer yuzasini kartasi.

Topografik karta - nuqtalarni ham planli ham balandlik o'rni (holatini) aniqlashga imkon beradigan joyni mufasssal kartasi.

Sohaviy karta - asosiy mazmuni fan yoki halq ho'jaligini muayyan sohasini rivojlantirish maqsadida o'rganiladigan va foydalaniladigan asosiy ob'ektlarni tasvirlash bo'lgan karta.

Maxsus karta - ma'lum vazifalarni (topshiriqlarni) echish uchun mo'ljallangan va ma'lum doiradagi foydalanuvchilarga mo'ljallangan karta.

Kompleks (majmuali) karta - bir necha o'zaro bog'langan ob'ektlarni xar birini alohida o'zini ko'rsatkichida ko'rsatadigan karta.

Analitik karta - umumlashtirilgan aniq yoki ozgina kam umumlashtirilgan ko'rsatkichlarni beradigan karta.

Sintetik karta - qator ko'rsatkichlarni birlashtirish asosida ob'ektlarni bir-butun qilib ko'rsatadigan karta.

Obzor karta - tasvirlanayotgan soha bilan umumiy tanishish uchun mo'ljallangan karta.

Tabiiy-geografik karta - bosh (asosiy) mazmuni geografik muhitni va geografik qobiqni tasvirlash bo'lgan karta.

Sotsial-iqtisodiy karta - bosh (asosiy) mazmuni sotsial-iqtisodiy ob'ektlarni tasvirlash bo'lgan karta.

Iqtisodiy-geografik karta - bosh mazmuni xalq ho'jaligini va dunyo xo'jaligini holatini va rivojlanishini tasvirlash bo'lgan karta.

Atlas - umumiy dastur asosiy yaxlit bo'linmas asar sifatida bajarilgan geografik kartalarni sistematik to'plami bilan birlashtirilgan, ko'p kartalardan tashkil topgan kartografik asar.

Geografik atlas - geografik kartalar atlas.

Globus – yuzasida kartografik tasvir bo'lgan shar.

Geografik globus - yer yuzasini tasvirlovchi globus.

Kartani dasturi - kartani tipini va belgilangan maqsadini, uni matematik asosini, mazmunini, generalizatsiya prinsiplarini, shartli belgilarini, tavsiya etiladigan kartografik materiallar, ulardan foydalanish va kartani tayyorlash texnologiyasini belgilaydigan hujjat.

Atlasning dasturi - atlasni tipini va belgilangan maqsadini, uni matematik asosini, mazmunini, generalizatsiya prinsiplarini, shartli belgilarini, tavsiya etiladigan kartografik materiallar, ulardan foydalanish va atlasni tayyorlash texnologiyasini belgilaydigan hujjat.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Asamov M.,Mirzaliev T. Topopgrafiya asoslari va kartografiya. Toshkent. «O'qituvchi», 1988 y.
2. Asamov M.,Mirzaliev T. Topografiya asoslari va kartografiyadan laboratoriya mashgulotlari. Toshkent. «O'qituvchi», 1990 y.
3. Mirzaliev T. Geografik karta va undan foydalanish. T.: O'qituvchi 1982
4. T.Mirzaliev va boshqalar. Kartashunoslik. Toshkent "CHo'lpon",2012y.
5. E.Safarov, SH.Prenov.Tabiiy kartalarni loyixalash va tuzish. Toshkent "Universitet",2011y.